

XOR ATAMASINING PAYDO BO'LISHI VA XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI

Madaminov Vaslidin

*Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi
"Xor dirijyorligi" bo'limi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xor san'atining paydo bo'lishi va kelib chiqish tarixi, turlari, ko'rinishlari va xor san'atini o'zbekistonga kirib kelishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Xor, xorning turlari, xor ko'rinishlari, dirijyor, xor jamoalari.

Har bir san'at turning o'z kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari, buguni va kelajag bo'ladi albatta. Har bir san'atturi o'zining qadryatlari, repertuari va boy merosiga ega. Shu bilan birga xor san'ati ham oz kelib chiqish tarixi, zamonlar aro rivojlanishi, repertuarlari, o'z qadryati va boy merosiga ega. Xor san'ati hozirgi kunda butunjahon sa'ati sifatida rivojlandi ya'ni bu san'at turi dunyo yuzini ko'rdi. Xor san'ati bora-bora xalqlar orasida singib rivoj topdi.

Xor – yunoncha «choros» — yig'ilish, to'da ma'nosini bildirib, jamoa sifatida turli inson ovozlariidan tashkil topadi. Bundan ko'rinib turibdiki xor ijrochiligida jamiyat hayotida birlashish, birdamlik masalalari ham ilgari suriladi. Shuningdek xor uchun yozilgan asarlarda ham buni kuzatish mumkin.

Xorlar asosan ikki turga bo'linadi:

- Bir turdagi xorlar;
- Aralash xorlar.

Bir turdagi xorlarga – bolalar xori (soprano yoki diskant va alt ovozlari), ayollar xori (soprano va alt ovozlari), erkaklar xori (tenor va bas ovozlari) kiradi. Bir turdagi xorlar ko'pincha o'z holatiga moslab yozilgan asarlarni ijro etadilar. Erkaklar xori erkaklar uchun yozilgan asarlarni, ayollar xori ayollar uchun yozilgan asarlarni, bolalar xori esa bolalar uchun yozilgan asarlarni ijro etadilar.

Aralash xorga esa – ayollar va erkaklardan aralash holda tuzilgan tuzilgan xorlar (soprano, alt, tenor va bas) hisoblanadi. Bu xor asosan yirik shakldagi xor asarlarni ijro etadilar. Aralash xor konsert ijrochiligida ham ko'p kuzatiladi. Aralash xor boshqa xordan ovozlari rang-barangligi, ijro imkoniyatining kengligi, ijro etiladigan asarlarning anchagina yirikligi bilan boshqa xorlardan ajralib turadi.

Bolalar xori xam o'z ichida yosh jihatidan turlarga bo'linadi:

- 4–7 yoshdagi bog'cha kichikintoylaridan tuziladigan xorlar;
- 7–10 yoshdagi bolalardan tuzilgan kichik yoshdagi bolalar xor jamoasi;
- 11–15 yoshdagi bolalardan tuzilgan o'rta yoshdagi bolalar xor jamoasi;

- 16–18 yoshdagi o‘smir-yoshlar xor jamoasi.

Ayollar xor jamoasi sopranolar va alt partiyalarini o‘z ichiga oladi. Partiyalar asarning holatiga qarab o‘z ichida bo‘linib (divisi) ijro qilishlari mumkin ya’ni: soprano I – soprano II va alt I – alt II holatida to‘rt ovozlik shaklda bemalol ijro etish mumkin. Bu faqat xorning ovoz imkoniyatiga bog‘liq.

Erkaklar xoriing imkoniyati ayollar xori imkoniyatidanda ko‘proq chunki erkaklar xorida oktavachi baslar ham bo‘lishi mumkin. Erkaklar xori: tenor I va tenor II, Baritonlar, baslar va oktavachi baslardan iborat.

Aralash xor – boshqa xor turlariga nisbatan kengroq tarqalgan. O‘zining rang-barang tembriga, katta ovoz diapazoniga va keng ijro imkoniyatlariga boy bo‘lganligi tufayli eng takomillashgan badiiy jamoalar safidan o‘rin olgandir. O‘zbekistonda har bir sohada bo‘lgani kabi xor san‘atiga berilayotgan e’tibor va shuning natijasida bu san‘atning rivojlanib, takomillashib borayotgani soha vakillarini quvontirmoqda. Jahon andozalariga mos tushadigan yangi yo‘nalishdagi musiqa san‘ati sezilarli darajada yuksaldi, ulg‘aydi va baquvvatlandi.

Xor san‘atining asoslarini va uning tarixini o‘rganar ekanmiz jahon xonandalik maktablari tarixiga nazar tashlashimiz lozim. Respublikamizda akademik kuylash uslubi asosan rus xonandalik maktabi tajribasiga tayangandir. Sababi bizning xor ijrochiligimizning tag negisi “Rimskiy Korsakov nomidagi Sankt Peterburg konservatoriyasi” ga borib taqaladi. Rus akademik xonandaligi irmoqlari esa – rus xalq qo‘shiqlarining o‘ziga xos kuychanligi, kuyning kengligi va ma’nosining boyligini o‘ziga jamlagan.

Rus bastakorlari milliy ohang an‘analarini saqlagan holda unga yangi intonatsiyalar, usul va garmoniyalarni olib kirdilar, bu xonandalik musiqasining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi va xonandalar oldiga yangi vazifalar qo‘ydi. Rus xonandaligi maktabiga uslublarining ko‘p qirraligi hosdir. Bu uslublarga ega inson barcha tillarda a’lo darajada kuylay olishi mumkin. Bunda nafasdan foydalanish, tanglay ish faoliyati, ya’ni rezonatoridan foydalana bilish, matnga yuqori e’tibor, badiiy haqiqat yaratish katta ahamiyatga egadir. Ma’lum bir davrdan so‘ng xor san‘atida yana bir o‘zgarish paydo bo‘lib, yirik asarlar – kantata, oratoriyalar mualliflari sifatida – I.S.Bax, G.Gendel, K.Glyuk ijodi, keyinchalik Meyerber, J.Verdi, shu bilan birga F.Shubert, B.Mendelson, R.Shuman kabi romantik kompozitorlar ijodida kamer xor musiqasi rivoj topdi. Shu davrda qo‘shiq sevadiganlar xor jamoalari «lidertafel’» (nemischa so‘z bo‘lib, «yetakchi qo‘shiqchi» ma’nosini anglatadi. Germaniya, Avstriya va Shveytsariya davlatlarida keng rivojlangan) va «orfeon» (fransuzcha «xor sevuvchilar jamoasi» 1818-yilda Parijda G.Vilemom rahbarligida) paydo bo‘lgan. Xor san‘atining cherkov musiqa san‘atidan asta-sekin tashqariga chiqq boshladi va opera teatrlari shakllandi. XIX asrdagi milliy kompozitorlik maktabini xalq omma musiqasiga chambarchas bog‘lanib ketishi Rossiya, Boltiq bo‘yi davlatlari – Chexiya,

Bolgariya, Vengriya va boshqa davlatlarda namoyon bo'lgan XX asrning ikkinchi yarmida xor san'ati va kompozitorlik ijodiyoti yanada yuksaklarga ko'tarildi. Bunga S.Prokofyev, D.Shostakovich, V.Shaporin, M.Koval, G.Sviridov, V.Salmanov, A.Lenskiy, V.Shebalin, R.Boyko, R.Shedrin va boshqalarning ijodiy izlanishlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Shu davrda xor ijrochiligida bolalar ovozigina ham katta e'tibor berilib, maktab bazalarida xor studiyalari, xor to'garaklari, vokal ansambllari tashkil qilindi. Har yili o'tkaziladigan xor festivallari, qo'shiq bayramlari, bolalar musiqa ijodiyoti festivallari keng ko'lamda o'tkazildi. Vladimir Sokolov, Georgiy Struve va Viktor Popov rahbarligidagi bolalar xor jamoalarining dovrug'i butun dunyoga taraldi. Bunday taniqli dirijor va kompozitorlar o'z vaqtida O'zbekiston bolalari, yosh musiqasevarlar bilan ham ko'plab ijodiy uchrashuvlar o'tkazganlar.

O'zbekistonda eng taniqli xor jamoasiga bundan chorak asr narida «Bulbulcha» nomi berilishiga Georgiy Struve sababchi bo'lgan. Ayni paytda, ustozlarning yangi yosh avlodi shakllanib borayotganligini nazarda tutsak, O'zbekistonda musiqa san'ati yangi sifat pog'onasiga ko'tarilayotganligini ta'kidlashimiz mumkin. O'zbekiston milliy simfonik, kamer va xalq cholg'ulari orkestr jamoalari birlashmasi xuzuridagi O'zteleradio xor jamoasi hamda xor kapellasi, A.Navoiy nomidagi opera va balet teatri, hamda Muqimiy nomidagi musiqali komediya teatri xor jamoalari, O'zDK xuzuridagi MTS xori, talabalar xor jamoalari, Respublikadagi barcha o'rta maxsus musiqiy ta'lim muassasalari va BMSMlari xor jamoalari o'z ijodiy faoliyatlarini yanada takomillashtirib, rivojlantirib kelmoqdalar. Jamoa bo'lib ijro etilgan har qanday asar tinglovchini beixtiyor o'ziga rom etibgina qolmay, balki musiqiy hayot olamiga g'arq bo'lishga, asar qahramonlari hayoti bilan yashashga, ularning ichki kechinmalari, his-hayajonlarini to'g'ri anglashga undaydi. Misol sifatida Davlat xor kapellasini, Milliy xor jamoasini, A.Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatrining xor truppasini, O'zbekiston davlat konservatoriyasining talabalar xor jamoasini keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xor dirijyorligi xrestomatiyasi. - T.: O'qituvchi, 1976. 2-qism.
2. Xor dirijyorligi xrestomatiyasi. - T.: O'qituvchi, 1977. 3-qism.
3. Xor dirijyorligi xrestomatiyasi. - T.: O'qituvchi, 1985.
4. Q.Mamirov. "Qo'shiqlar, xor asarlari". - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.
5. Xrestomaniya po dirijirovaniyu. - M.Muzika, 1972.